

**ABU NASR FOROBIY HAYOTI VA “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARI:
FALSAFIY-NAZARIY TAHLIL**

Nurmatova Mavzuna Shodmankulovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Pedagogika-Psixologiya” fakulteti 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18709653>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq uygʻonish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy hayoti, ilmiy-maʼrifiy merosi hamda uning mashhur falsafiy asari — Fozil odamlar shahri (“Al-Madina al-fadila”)ning mazmun-mohiyati falsafiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Xususan, Forobiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, jamiyat va davlat haqidagi konsepsiyasi, fozil inson timsoli hamda ideal jamiyat modeli yoritiladi.

Shuningdek, asarda ilgari surilgan axloqiy fazilatlar, rahbar shaxsiga qoʻyilgan talablar, ilm va maʼrifatning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni kabi masalalar tizimli ravishda koʻrib chiqiladi.

Maqolada Forobiy taʼlimotining antik falsafa, xususan Aristotel hamda Platon qarashlari bilan uzviy bogʻliqligi ochib beriladi hamda mutafakkirning Sharq va Gʻarb falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi asoslanadi. “Fozil odamlar shahri” asari misolida ideal jamiyat va komil inson gʻoyasining nazariy asoslari, ularning bugungi globallashuv sharoitidagi dolzarbligi ilmiy tahlil etiladi. Natijada Forobiyning siyosiy-falsafiy qarashlari insonparvarlik, adolat, maʼnaviy barkamollik va ijtimoiy hamkorlik tamoyillariga asoslangani, uning ideal jamiyat haqidagi taʼlimoti zamonaviy fuqarolik jamiyati konsepsiyalari bilan uygʻun jihatlarga ega ekani xulosalanadi.

Kalit soʻzlar: Abu Nasr Forobiy, “Fozil odamlar shahri”, ideal jamiyat, komil inson, ijtimoiy-falsafiy taʼlimot, siyosiy falsafa, fazilat, davlat boshqaruvi, maʼnaviy barkamollik, Sharq uygʻonish davri.

**FARABI'S LIFE AND THE WORK "THE CITY OF GOOD PEOPLE":
PHILOSOPHICAL-THEORETICAL ANALYSIS**

Abstract. This article analyzes the life, scientific and educational heritage of the great thinker of the Eastern Renaissance, Abu Nasr al-Farabi, and the content of his famous philosophical work, The City of Virtuous People ("Al-Madina al-fadila"), from a philosophical and theoretical perspective. In particular, it covers Al-Farabi's socio-political views, his concept of society and the state, the image of a virtuous person, and the model of an ideal society. The work also systematically examines issues such as the moral qualities put forward in the work, the requirements for a leader, and the role of science and enlightenment in the development of society.

The article reveals the inextricable connection of Al-Farabi's teachings with the views of ancient philosophy, in particular Aristotle and Plato, and substantiates the thinker's contribution to the development of Eastern and Western philosophical thought. Using the example of the work "The City of Virtuous People", the theoretical foundations of the idea of an ideal society and a perfect person, their relevance in today's globalization, are scientifically analyzed. As a result, it is concluded that Al-Farabi's political and philosophical views are based on the principles of humanity, justice, spiritual perfection, and social cooperation, and that his doctrine of an ideal society has aspects that are consistent with the concepts of modern civil society.

Keywords: Abu Nasr Al-Farabi, "City of Virtuous People", ideal society, perfect man, socio-philosophical doctrine, political philosophy, virtue, state administration, spiritual perfection, Eastern Renaissance.

Kirish. Farobiy (taxallusi; to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy; 873-yil, Farob shahri — 951-yil, Damashq) — O'rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun „al Muallim assoniy“ („Ikkinchi muallim“, Aristoteldan keyin), „Sharq Arastusi“ nomlariga sazovor bo'ldi. Ushbu maqolada Forobiyning hayoti, ilmiy merosi hamda „Fozil odamlar shahri“ asarining nazariy asoslari, ijtimoiy-falsafiy mohiyati va bugungi kun uchun dolzarbliq ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Olim 941-yildan Damashkda muhtojlikda kun kechira boshlaydi. Shunga qaramay, ilm bilan shug'ullanadi, falsafa va boshqa fanlar sohasida tadqiqot ishlari olib boradi. U Aleppo (Halab) hokimi Hamdamid (hukmronlik yillari 943—967) iltifoti va hurmatiga erishadi. U olimlarning homiysi sifatida tanilgan edi. Hokim Forobiyni o'z saroyiga taklif etadi, lekin, u saroyga bormasdan, erkin hayot kechirishni ma'qul ko'radi.

Shunga qaramasdan, allomaning Halabdagi hayoti sermahsul bo'ldi, bu yerda o'zining ko'plab asarlarini yozdi. Forobiy 949— 950 yillarda Misrda, so'ngra Damashqda yashaydi va shu yerda umrining oxirgi kunlarini o'tkazadi. U Damashqdagi „Bob assag'ir“ qabristoniga dafn etilgan.

Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, mavjud risolalarining o'ziyiq uning buyuk olim ekanligidan dalolat beradi.

Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan, falsafa, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, tabiat, fizika, kimyo, optika, tibbiyot, biologiya va boshqa fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan katta shuhrat qozonib, 160 dan ortiq asar yozgan.

Bizgacha 40 ga yaqin asari yetib kelgan. Asarlari: «Arastu qonunlarining mohiyati haqida», «She'r san'ati haqida» (Arastuning «Poetika» asariga sharh sifatida yozilgan risola), «Fozillar shahri aholisining fikrlari», «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» va boshqalar.

Farobiyning asosiy asarlari: „Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida“, „Falsafiy savollar va ularga javoblar“, „Ensiklopediyadan mantiq bo'limining bir qismi“, „Taliqot“ (sharhlar), „Inson a'zolari haqida risola“, „Bo'shliq haqida maqola“, „Donolik asoslari“, „Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi“, „Hayvon a'zolari, funksiyasi va potensiyasi“, „Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima“, „Mantiq ilmiga kirish“, „Ilmlarning kelib chiqishi haqida“, „Musiqa haqida katta kitob“, „Baxtsaodatga erishuv haqida“, „Masalalar mohiyati“, „Buyuk kishilarning naqllari“, „Ihso alulum“, „Hikmat ma'nolari“, „Aql to'g'risida“, „Ilmlar va san'atlar fazilati“, „Qonunlar haqida kitob“, „Substansiya haqida so'z“, „Falak harakatining doimiyligi haqida“, „She'r va qofiyalar haqida so'z“, „Ritorika haqida kitob“, „Hajm va miqdor haqida so'z“, „Musiqa haqida so'z“, „Fizika usullari haqida kitob“, „Fazilatli xulqlar“, „Fozil shahar aholisining fikrlari“, „Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida“, „Aristotel

„Metafizika“ kitobining maqsadi to‘g‘risida” va boshqa Forobiy asarlari 20-asrning 70-80-yillarida Toshkent va Olmaotada „Falsafiy risolalar“, „Mantiqiy risolalar“, „Matematik risolalar“, „Ijtimoiy axloqiy risolalar“, „Tadqiqotlar va tarjimalar“ nomlari ostida rus tilida nashr etilgan.

Farobiyning fanlar tasnifida tabiiy va ijtimoiy fanlar o‘z vazifasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, matematika, tabiatshunoslik va metafizika ilmlari inson aqlzakovatini boyitishga xizmat qiladi, grammatika, she‘riyat va mantiq esa fanlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya‘ni akliy tarbiya uchun xizmat qiladi. Siyosat, axloqshunoslik va pedagogikaga ovd bilimlar kishilarning jamoaga birlashuvi, ijtimoiy hayotning qonun va qoidalarini o‘rgatadi. Xullas, Forobiyning ilmlar tasnifi to‘g‘risidagi ma‘lumoti o‘rta asrda turli fanlarning rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, keyingi davrlarda yashagan olimlar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tadi.

Abu Nasr Forobiyning ontologik, gnoseologik va ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Forobiy borliq masalasini “vujudi vojib” (zaruriy mavjudlik) va “vujudi mumkin” (imkoniy mavjudlik) ta‘limoti asosida izohlaydi. Uning fikricha, **“vujudi vojib” — bu mutlaq zaruriy mavjudlik bo‘lib, u barcha mavjudotning birinchi sababi va manbaidir.** Mutafakkir Xudoni birinchi sabab, birinchi mohiyat sifatida talqin qiladi. U o‘z mavjudligi uchun boshqa sababga muhtoj emas, aksincha barcha mavjud narsalar Uning sababiy qudrati bilan vujudga keladi. Unda ziddiyat, nuqson, o‘zgarish va beqarorlik mavjud emas. “Vujudi mumkin” esa barcha yaratilgan narsa va hodisalarni anglatadi. Ular o‘z-o‘zicha mavjud bo‘la olmaydi, balki sababiy zanjir orqali zaruriy mavjudlikka bog‘langan holda mavjud bo‘ladi. Forobiy butun mavjudotni sababiylik nuqtai nazaridan olti darajaga ajratadi:

- 1.Xudo — birinchi sabab (vojibul vujud)
- 2.Osmon jismlari
- 3.Faol aql
- 4.Jon (nafs)
- 5.Shakl (surat)
- 6.Modda (materiya)

Xudo birinchi bo‘lib faol aqlni yaratadi. Faol aql esa osmon jismlariga oid aqlarni yuzaga keltiradi. Eng so‘nggi samoviy aql natijasida Yer olamidagi moddiy jismlar paydo bo‘ladi.

Moddiy olam asosini to‘rt unsur — tuproq, havo, olov va suv tashkil etadi. Ushbu unsurlardan o‘simliklar, hayvonlar, inson va notirik tabiat shakllanadi.

Forobiy fikricha, mavjudotlar izchil va zaruriy tadrijiy jarayon asosida paydo bo‘ladi.

Borliq sabab va oqibat qonuniyatiga bo‘ysunadi. Bu ta‘limot keyingi davrlarda hurfikrlik va ratsional tafakkur rivojiga muhim ta‘sir ko‘rsatdi. Gnoseologik qarashlari (bilish nazariyasi). Forobiyning bilish haqidagi qarashlari uning “Aql to‘g‘risida”, “Mantiqqa kirish”, “Mantiq to‘g‘risida risolaga muqaddima”, “Falsafaning ma‘nosi va kelib chiqishi” kabi asarlarida bayon etilgan. Mutafakkir insonni Yer yuzidagi oliy mavjudot deb biladi. Inson voqelikni sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va aql orqali biladi. U hissiy va aqliy bilishni farqlaydi:

Hissiy bilish — sezgi a‘zolari orqali narsalarning tashqi belgilarini idrok etish.

Aqliy bilish — mavhumlashtirish orqali narsaning mohiyatini anglash.

Forobiy aqlni ikki jihatdan talqin qiladi:

- 1.Tug‘ma ruhiy quvvat sifatida;

2. Ta'lim-tarbiya natijasida rivojlanadigan qobiliyat sifatida.

Uning fikricha, haqiqiy ilm koinot aqli (faol aql) bilan bog'lanish natijasida mukammallashadi. Bilish jarayoni oddiy sezgidan mohiyatni anglash darajasigacha bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Mantiq haqidagi ta'limoti. Forobiy Sharq mantiq maktabining asoschilaridan biridir. U mantiqni tafakkurni to'g'ri yo'lga soluvchi vosita deb biladi. "Mantiq to'g'risida risolaga muqaddima" asarida mantiqning vazifasini grammatikaning tilga bo'lgan munosabatiga qiyoslaydi: grammatika nutqni to'g'rilasa, mantiq tafakkurni to'g'rilaydi. U tushuncha, hukm, xulosa, isbot, sillogizm, induksiya va deduksiya shakllarini chuqur tahlil qiladi. Mantiqiy tafakkur insonni xatolardan saqlaydi va ilmiy xulosalarga olib keladi. Forobiyning ta'limoti keyingi musulmon va Yevropa falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning g'oyalari Ibn Sino, Ibn Rushd, Ibn Xaldun kabi mutafakkirlar tomonidan rivojlantirildi. Forobiy Sharq va G'arb tafakkurini bog'lovchi ko'prik vazifasini bajardi. Uning ontologik, gnoseologik, mantiqiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bugungi kunda ham ilmiy va nazariy ahamiyatini saqlab qolgan.

“FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARI: FALSAFIY-NAZARIY TAHLILI

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-falsafiy tafakkur tarixida muhim o'rin tutadi. Asarda jamiyatning mukammal modeli — fozil shahar konsepsiyasi ishlab chiqilib, uning boshqaruv tizimi, maqsadi va ma'naviy asoslari nazariy jihatdan asoslab beriladi. Forobiy jamiyatning tabiiy ravishda kelib chiqishini asoslab beradi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun boshqalar bilan hamkorlik qilishga majbur. Shuning uchun jamiyat vujudga keladi. U jamiyatni fozil va johil shahar turlariga ajratadi. Bu g'oyalar ayniqsa uning mashhur asari — Fozil odamlar shahrida keng yoritilgan.

Fozil jamiyatda: adolat ustuvor bo'ladi, ilm va ma'rifat qadrlanadi, rahbar axloqiy yetuk bo'ladi, insoniylik asosiy mezon hisoblanadi.

Johil jamiyat esa: boylikka ruju qo'yish, nafsparastlik, zulm va adolatsizlik bilan tavsiflanadi.

Forobiy insonparvar faylasuf sifatida tinchlik, hamkorlik va insoniy birlik g'oyalarini ilgari suradi. Unga ko'ra, insonlarni birlashtiruvchi asos — insoniylikdir.

Fozillar shahri boshlig'ining o'n ikki fazilati. Forobiy ta'limotiga ko'ra, fozil jamiyatning birinchi rahbari — imom yoki boshliq — nafaqat siyosiy hokim, balki ma'naviy-axloqiy yetakchi hamdir. U tabiatan quyidagi o'n ikki fazilatni o'zida mujassam etgan bo'lishi zarur:

Jismoniy barkamollik — rahbar sog'lom bo'lib, o'z vazifalarini bajarishda jismoniy nuqsonlar xalal bermasligi lozim.

Nozik farosat — suhbatdoshining fikrini tez anglash, voqelikni teran idrok eta olish qobiliyati.

Kuchli xotira — anglagan, ko'rgan va eshitgan narsalarni to'liq eslab qolish.

Zehn o'tkirliigi — voqea-hodisalarning yashirin alomatlarini tez ilg'ay olish.

Nutq ravonligi — fikrini aniq, mantiqli va go'zal ifoda eta bilish.

Ilmga chanqoqlik — ta'lim olishdan charchamaslik, ma'rifatga intilish.

Nafsni tiyish — ochofatlik, shahvatparastlik va behuda o'yinlardan yiroq bo'lish.

Haqparastlik — haqiqat va odillikni sevish, yolg'on va yolg'onchilardan nafratlanish.

Oliyhimmatlik — or-nomusli, pastkashlikdan yiroq, ulugʻ ishlarga intiluvchi boʻlish.

Mol-dunyoga befarqlik — boylik orttirishni hayotiy maqsadga aylantirmaslik.

Adolatparvarlik — zulm va istibdodga qarshi turish, barchaga teng munosabatda boʻlish.

Qatʼiyat va jasorat — zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishda sobitlik va qoʻrquvdan xoli boʻlish.

Mazkur fazilatlar rahbar shaxsida aqliy, axloqiy va siyosiy yetuklik uygʻunligini taʼminlaydi. Forobiy nazarida bunday rahbar jamiyatni haqiqiy saodat sari yetaklovchi shaxs hisoblanadi.

Fozil shaharga zid boʻlgan shaharlar tasnifi. Forobiy fozil jamiyatning muqobili sifatida bir qator noqobil (fazilatsiz) shahar turlarini ham koʻrsatadi:

Ayirboshlovchilar shahri — aholisi boylik va moddiy toʻkinlikni oliy maqsad deb biladi.

Razolat va badbaxtlik shahri — hayot mazmunini jismoniy lazzat va shahvoniy ehtirolarda koʻradi.

Obroʻparastlar shahri — maqtoʻv, shon-shuhrat va tashqi ulugʻlanishga intiladi.

Amalparastlar (hokimiyatparastlar) shahri — boshqalarga hukmronlik qilishni asosiy maqsad deb biladi.

Shahvatparastlar shahri — nafs va ehtirolarga toʻliq berilgan jamiyat.

Jaholatdagi shahar — aholisi haqiqiy saodat mohiyatini anglamaydi, past maqsadlarga xizmat qiladi.

Benomuslar shahri — haqiqatni bilsa-da, unga amal qilmaydi.

Beqaror shahar — dastlab fozil yoʻlda boʻlib, keyinchalik begona va buzuvchi gʻoyalar taʼsirida ogʻadi.

Adashgan shahar — saodatni notoʻgʻri talqin qiladi, ilohiy va aqliy haqiqatlar haqida chalkash tasavvurlarga ega.

Ushbu tasnif orqali Forobiy jamiyat taraqqiyotining maʼnaviy-meʼyoriy mezonlarini belgilab beradi. Fozil shahar — aql, adolat va fazilat ustuvor boʻlgan jamiyat boʻlsa, uning ziddi boʻlgan shaharlar nafs, jaholat yoki notoʻgʻri eʼtiqodga asoslanadi. Mazkur qarashlar Forobiyning ideal jamiyat haqidagi konsepsiyasi chuqur axloqiy-falsafiy asosga ega ekanini koʻrsatadi hamda u Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida mukammal siyosiy-axloqiy model sifatida alohida oʻrin egallaydi.

Xulosa.

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ideal jamiyat va komil inson haqidagi mukammal nazariy konsepsiyani yaratgan fundamental manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asarda mutafakkir jamiyat taraqqiyotini insonning maʼnaviy kamoloti, aqliy yetukligi va axloqiy pokligi bilan uzviy bogʻliq holda talqin etadi. Forobiy nazarida haqiqiy saodat — bu moddiy farovonlik emas, balki aql va fazilat asosida qurilgan ijtimoiy hayot natijasidir.

Fozil shahar konsepsiyasi insonlarning oʻzaro hamkorligi, adolatli boshqaruv va umumiy ezigulik tamoyillariga asoslanadi. Jamiyatning bosh maqsadi — har bir aʼzoning saodatga erishishiga koʻmaklashishdir. Bu jarayonda birinchi rahbar — imom yoki hokim — hal qiluvchi oʻrin tutadi.

U oʻzida mujassam etgan oʻn ikki fazilat orqali nafaqat siyosiy boshqaruvni amalga oshiradi, balki maʼnaviy yetakchilik vazifasini ham bajaradi. Demak, Forobiy taʼlimotida siyosiy hokimiyat axloqiy masʼuliyat bilan uygʻunlashgan.

Asarda fozil shaharga zid boʻlgan jamiyatlar tasnifi ham muhim nazariy ahamiyatga ega.

Mutafakkir jamiyatlarni ularning qadriyatlari va maqsadlariga koʻra farqlaydi. Moddiy manfaatni ustuvor qoʻyuvchi, shahvat va ehtirolarga berilgan, shon-shuhrat yoki hokimiyatni oliy maqsad deb bilgan jamiyatlar haqiqiy saodatdan yiroq ekani asoslab beriladi. Bu tasnif ijtimoiy hayotning axloqiy mezonlarini belgilashga xizmat qiladi va jamiyatning inqirozga yuz tutish sabablarini ochib beradi.

Forobiyning qarashlari antik falsafa, xususan Platonning “Davlat” haqidagi gʻoyalari hamda Aristotelning siyosiy-falsafiy taʼlimoti bilan maʼlum darajada uygʻunlik kasb etadi. Biroq mutafakkir bu qarashlarni islomiy dunyoqarash va oʻz davrining ijtimoiy ehtiyojlari bilan boyitib, oʻziga xos original konsepsiya yaratgan.

Umuman olganda, Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan ideal jamiyat modeli nafaqat oʻrta asr Sharq falsafasining yuksak yutugʻi, balki bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan nazariy merosdir. Uning adolat, ilm-maʼrifat, axloqiy poklik va insonparvarlikka asoslangan gʻoyalari zamonaviy fuqarolik jamiyati qurilishi, maʼnaviy barkamol shaxsni tarbiyalash hamda ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash jarayonida muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Forobiy yaratgan falsafiy tizim yaxlit va izchil xarakterga ega. Uning borliq haqidagi taʼlimoti — sababiylik va zaruriyatga asoslangan ontologik konsepsiya; bilish nazariyasi — ratsionalizm va mantiqiy tafakkurga tayangan gnoseologik tizim; jamiyat haqidagi qarashlari esa insonparvarlik va adolat gʻoyalari asoslangan ijtimoiy modeldir. Shu jihatdan Forobiy nafaqat oʻz davrining, balki butun jahon falsafasi tarixining buyuk namoyandalaridan biri sifatida eʼtirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Risolalar, T., 1975;
2. Filosofskiye traktati, AlmaAta, 1972;
3. Fozil odamlar shahri, T., 1993.
4. Al Farabi. Nauchnoye naslediye. Sbornik, M., 1975;
5. Alikulov X. A., Eticheskiye vozzreniya mislitley Sredney Azii i Xorasana, T., 1992;
6. Grigoryan S. N., Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednego Vostoka, M., 1966;
7. Iz filosofskogo naslediya narodov Blijnego i Srednego Vostoka, T., 1972;
8. Jumaboyev Y ., Oʻzbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan, T., 1997;
9. Maʼnaviyat yulduzlari, T., 1999.
10. Moʻminov I. M., Oʻzbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. T., 1999;
11. Oʻzbekistonda ijtimoiyfalsafiy fikrlar tarixidan, T., 1995;
12. Sotsialnoutopicheskiye idei v Sredney Azii, T., 1983;
13. Xayrullayev M. M., Abu Nasr Forobiy, T., 1966;
14. Xayrullayev M. M., Farabi. Epoxa i ucheniye, T., 1975;

15. Xayrullayev M. M., Forobiy va uning falsafiy risolalari, T., 1963;
16. Xayrullayev M. M., Mirovozreniye Farabi i yego znachenije v istorii filosofii, T., 1967;
17. Xayrullayev M. M., O'rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994;
18. Xayrullayev M. M., Uyg'onish davri va Shark mutafakkiri, T., 1971;
19. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Tarjima va izohlar bilan.
20. Nasr, Seyid Hosayn. History of Islamic Philosophy. London: Routledge, 2006.
21. Mahmudov, R. O'rta asr islom falsafasi. Toshkent, 2015.
22. Adamson, P. The Philosophy of Al-Farabi and the Foundations of Political Philosophy. Oxford, 2011.
23. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: "Abdulla Qodiriy" nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 1993 — 320-bet. [ISBN 5-86484-075-0](#). [OCLC 32663116](#).
24. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.: Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004 — 160-bet.
25. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Xayrullayev, Muhammadjon Jakbarov:_. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2016 — 320-bet. [ISBN 978-9943-27-613-0](#).
26. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, turli nashrlar.
27. Abu Nasr Forobiy. *Aql to'g'risida*. — Toshkent: Fan nashriyoti.
28. Abu Nasr Forobiy. *Mantiq to'g'risida risolaga muqaddima*. — Toshkent: Fan nashriyoti.
29. Abu Nasr Forobiy. *Baxt-saodatga erishuv haqida*. — Toshkent: Yangi asr avlodi.
30. Ibn Rushd. *Tahofut at-tahofut*. — Qohira nashri.
31. Xayrullayev, M. M. *Forobiy dunyoqarashi va uning falsafiy merosi*. — Toshkent: Fan, 1967.
32. Mo'minov, I. M. *Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixi*. — Toshkent: Fan, 1969.
33. Nosirov, R. *Forobiy va uning falsafiy ta'limoti*. — Toshkent: O'zbekiston.